



FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 7-avgust

182-11-163-Q/25

Farg‘ona tumani hokimligi

Farg‘ona tumanida 2026-yilgi chaqiruv mavsumi uchun 1999-2008-yillarda tug‘ilgan chaqiriluvchilarni o‘rganish hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga muddatli harbiy xizmatni o‘tash uchun tanlab olish tartibi to‘g‘risida

“Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-iyuldagi “Chaqiriluvchilarni tanlab olish tartibi to‘g‘risida”gi 413-sonli, 2020-yil 9-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi 211-sonli qarorlari talablarini amalga tatbiq qilish, tumanda 2026-yilgi chaqiruv mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va uni sifatli o‘tkazish bilan bog‘liq ishlarining samaradorligini oshirish, shuningdek, 1999-2008-yillarda tug‘ilgan chaqiriluvchilarni harbiy-texnika mutaxassisliklari bo‘yicha tayyorgarlikka jalb etish hamda Qurolli Kuchlar safiga muddatli harbiy xizmatni o‘tashlari uchun ular o‘rtasida o‘rganish va tanlov ishlarini sifatli o‘tkazish tadbirlarini belgilash maqsadida,

QAROR QILAMAN

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-iyul kungi “Chaqiruvchilarni tanlab olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 413-sonli qarori asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 21-iyul kungi 358-11-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari I.Toshpo‘latov:

O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasiga muvofiq fuqarolar yig‘inining kengashi harbiy

xizmatga majburlar va chaqiriluvchilarni xabardor etishlari hamda Mudofaa ishlari bo'limiga chaqirishni tashkil qilishga ko'maklashishlari ta'minlansin;

O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi hamda Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda tanlov tadbirlarini o'z vaqtida tashkillashtirsin va o'tkazsin;

joylardagi tanlov tadbirlarining sifatli tashkil etilganligi hamda tegishli darajada o'tkazilayotganligi o'rganilsin, bu borada amaliy yordam ko'rsatilsin;

Mudofaa ishlari bo'limi so'rovnomalariga asosan o'quv muassasalari, tashkilot va korxonalardan texnik xodimlar ajratish bo'yicha amaliy yordamlar ko'rsatilsin.

3. Tuman hokimining o'rinbosari I.Toshpo'latov, O'zbekiston mahallalari uyushmasining Farg'ona tumani bo'limi (D.Xomidov):

O'zbekiston Respublikasi "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonunining 15-moddasiga muvofiq yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshirilishini hamda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat, notijorat tashkilotlari ishtirok etishini ta'minlasin;

Mudofaa ishlari bo'limi bilan hamkorlikda tumandagi mavjud chaqiruv resursini "mahallabay" tizimida o'rganish ishlari tashkil etilsin, muddatli harbiy xizmatga munosib nomzodlarni tanlab olish jarayonida bevosita ishtirok etilsin;

tasdiqlangan rejaga asosan mahallada o'rganish ishlarining o'tkazish joyini belgilash va o'rganish ishlarini o'z vaqtida o'tkazish uchun davlat organlari bilan ko'maklashish;

tuman Mudofaa ishlari bo'limi tomonidan taqdim etilgan ro'yxatga asosan mahallada tashkil etiladigan o'rganish ishlariga chaqiriluvchilar, ularning ota-onalari va boshqalarning qatnashishini ta'minlansin.

Mudofaa ishlari bo'limi tomonidan taqdim etilgan ro'yxat asosida mahallalardagi harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilarni chaqiruv qog'ozi bo'yicha xabardor qilishni ta'minlasin;

chaqiruv yoshidagi fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga chaqirishda mudofaa ishlari bo'limiga doimiy ravishda amaliy yordam ko'rsatsin;

tanlov tadbirlari to'g'risida ommaviy axborot vositalari - televideniye, radio, gazeta va jurnallar, internet saytlari va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda tanlov haqidagi xabarnomalarning chiqishi nazoratga olinsin;

chaqiriluvchilarni umumjismoniy tayyorgarlik darajasini baholash, ular bilan suhbat o'tkazish bo'yicha 1-ilovadagi namunaviy tartibda Tanlov kengashi tarkibi tasdiqlansin;

suhbat jarayoni shaffofligini ta'minlash maqsadida, chaqiriluvchilarning ota-onalari uchun xona ajratilsin;

tanlovga jalb etiladigan Tanlov kengashi a'zolarining ish joyi, lavozimi va o'rtacha oylik ish haqi ular mazkur vazifalarni bajarayotgan butun davr mobaynida saqlab qolinsin.

3. Farg'ona tumani Ichki ishlar bo'limi (J.Xasanov):

Mudofaa ishlari bo'limi bilan hamkorlikda tumandagi mavjud chaqiruv resursini "mahallabay" tizimida o'rganish va tanlov tadbirlari davomida chaqiriluvchilarni mahallada o'rganish ishlarida profilaktika inspektorining bevosita ishtiroki ta'minlansin;

yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish uchun profilaktik tadbirlar tashkillashtirilsin;

jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikka tortilgan, dastlabki tergov olib borilayotgan ishga daxldor bo'lganlar, ichki ishlar organlari hisobida turganlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida elektron ma'lumotlar bazasiga kiritib borilsin;

tuman Mudofaa ishlari bo'limi tomonidan taqdim etilgan ro'yxatdagi chaqiriluvchilarga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilgan, tergovga qadar tekshiruv o'tkazilayotgan, dastlabki tergov yoki surishtiruv olib borilayotgan, jinoiy ishi sudda ko'rilaётgan, jinoiy javobgarlikka tortilgan, shuningdek, radikal oqimlar ta'siriga tushib qolgan chaqiriluvchilarni aniqlansin va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni tuman Mudofaa ishlari bo'limiga taqdim etilsin;

chaqiruv qog'ozi bo'yicha Mudofaa ishlari bo'limiga kelmayotgan, umumiy harbiy majburiyatni bajarishdan bo'yin tovlayotgan shaxslarni aniqlab, Mudofaa ishlari bo'limlariga olib kelish choralari ko'rilsin;

tumanda chaqiriluvchilar o'rtasida jismoniy tayyorgarligi bo'yicha tanlov o'tkazish joylarida jamoat tartibini saqlash uchun ichki ishlar organlari xodimlari jalb etilsin.

4. Yoshlar ishlari agentligi Farg'ona tumani bo'limi (M.Alijonov):

mahallalarda yoshlarni muddatli harbiy xizmatga chaqirish borasidagi targ'ibot-tashviquot tadbirlari yanada kuchaytirilsin;

Mudofaa ishlari bo'limi bilan hamkorlikda tumandagi mavjud chaqiruv resursini "mahallabay" tizimida o'rganish, muddatli harbiy xizmatga munosib nomzodlarni tanlab olish jarayonida bevosita ishtirok etilsin;

umumiy harbiy majburiyatni bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoshlar bilan Vatanni himoya qilish O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining muqaddas burchi va vazifasi ekanligi xususida batafsil tushuntirish va targ'ibot ishlari olib borilsin;

muddatli harbiy xizmatga har tomonlama yetuk, sog‘lom, jismonan baquvvat, mahalla jamoat ishlarida faol, intellektual salohiyatli yoshlarni yuborish bo‘yicha tuman Mudofaa ishlari bo‘limiga amaliy yordam ko‘rsatilsin;

tanlov tadbirlari mobaynida mahalla yoshlari orasidan Vatanga sadoqatli, har tomonlama yetuk, sog‘lom, muddatli harbiy xizmatni o‘tash istagida bo‘lgan kamida 5 nafar yoshlar haqidagi ma‘lumotlarni “Yoshlar balansi” platformasiga kiritib borilsin;

mahallada muddatli harbiy xizmatni o‘tash istagida bo‘lgan 18 yoshga to‘lgan yoshlarning ro‘yxati shakllantirilib, tuman Mudofaa ishlari bo‘limiga taqdim etib borilsin.

5. Davlat xavfsizlik xizmati Farg‘ona tuman bo‘limi:

yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mahallalarda muddatli harbiy xizmat va Qurolli Kuchlar nufuzini oshirishga qaratilgan ishlarda mahalla fuqarolar yig‘ini raislari, yoshlar yetakchilari va Mudofaa ishlari bo‘limiga amaliy yordam ko‘rsatilsin.

6. Farg‘ona tumani Mudofaa ishlari bo‘limi (B.Mo‘minov):

tuman Mudofaa ishlari bo‘limida harbiy hisobda turgan chaqiriluvchilar “mahallabay” tizimida o‘rganilishi nazoratga olinsin;

tuman Mudofaa ishlari bo‘limida 2025-yil 10-avgust kunidan 2026-yil 10-fevral kuniga qadar 1999-2008-yillarda tug‘ilgan chaqiriluvchilarni harbiy-texnika mutaxassisliklari bo‘yicha tayyorgarlikka jalb etish, Qurolli Kuchlar safida muddatli harbiy xizmatni o‘tashlari uchun ular o‘rtasida quyidagi tanlov tadbirlari o‘z vaqtida sifatli o‘tkazilishi ta‘minlansin va nazoratga olinsin;

avgust oyidan boshlab, har oyda tumanda o‘tkaziladigan tanlov tadbirlari to‘g‘risida ommaviy axborot vositalari - gazeta va jurnallar, internet saytlari va boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali e‘lonlar berib borilsin;

chaqiriluvchilarni umumjismoniy tayyorgarlik darajasini baholash;

chaqiriluvchilarni maxsus komandalarga saralash ishlarini olib borish.

7. Farg‘ona tumani Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi (Sh.Yuldashev), tumandagi texnikumlar bilan birgalikda Mudofaa ishlari bo‘limining chaqiriluvchilarni o‘rganish va tanlov tadbirlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi so‘rovnomalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-iyul kunidagi 413-sonli “Chaqiriluvchilarni tanlab olish tartibi to‘g‘risida”gi qarorida ko‘rsatilgan shart-sharoitlar bilan ta‘minlash ya‘ni:

chaqiriluvchilarni umumjismoniy tayyorgarlik darajasini baholash - umumjismoniy normativlarni qabul qilish uchun joylardagi sport maydonchalari (stadion) ajratsin.

8. Fargʻona tumani Tibbiyot birlashmasi (X.Toshboyev) tumandagi tanlovni oʻtkazish joylarida tanlov tadbirlarini oʻtkazish jarayonida chaqiriluvchilarga tez tibbiy yordam koʻrsatish maqsadida tibbiyot xodimlari bilan taʼminlasin.

9. Chaqiriluvchilarni umumjismoniy tayyorgarlik darajasini baholash, ular bilan yakka tartibdagi suhbat oʻtkazish boʻyicha tuman tanlov kengashining namunaviy tarkibi 1-ilovaga va tanlov natijalari boʻyicha berilgan apellyatsiyalarni koʻrib chiqish komissiyasi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tuzilsin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilib borish tuman hokimining oʻrinbosari I.Toshpoʻlatov hamda Mudofaa ishlari boʻlimi boshligʻi B.Moʻminovlar zimmasiga yuklatilsin.

Fargʻona tuman hokimi



Inomov X.T

Farg‘ona tumani hokimining
2025-yil 7-avgustdagi
182-11-163-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Chaqiriluvchilarni umumjismoniy tayyorgarlik darajasini baholash,
ular bilan yakka tartibdagi suhbat o‘tkazish bo‘yicha tuman
TANLOV KENGASHINING NAMUNAVIY TARKIBI**

№	F.I.Sh	Lavozimi
1.	<i>Lavozimiga ko‘ra</i>	O‘zbekiston mahallalari uyushmasining tuman bo‘limi boshlig‘i Tanlov Kengashi raisi
Tanlov Kengashi a‘zolari		
2.	<i>Lavozimiga ko‘ra</i>	Tuman mudofaa ishlari bo‘limi vakili
3.	<i>Lavozimiga ko‘ra</i>	Tuman yoshlar ishlari bo‘limi vakili
4.	<i>Lavozimiga ko‘ra</i>	Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasbiy ta’lim muassasalarining jismoniy tayyorgarlik fani o‘qituvchisi
5.	<i>Lavozimiga ko‘ra</i>	Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasbiy ta’lim muassasalarining chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik rahbari
6.	<i>Lavozimiga ko‘ra</i>	Chaqiriluvchilarning ota-onalari orasidan vakillar

Fargʻona tumani hokimining
2025-yil 7-avgustdagi
182-11-163-Q/25-son qaroriga
2-ilova

**Tanlov natijalari bo'yicha berilgan apellyatsiyalarni ko'rib chiqish
KOMISSIYA TARKIBI**

№	F.I.Sh	Lavozimi
Komissiya raisi		
1.	I.Toshpo'latov	Fargʻona tumani hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari
Komissiya a'zolari		
2.	D.Xomidov	O'zbekiston mahallalari uyushmasi Fargʻona tuman bo'limi boshlig'i
3.	Sh.Yuldashev	Fargʻona tumani Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i
4.	M.Alijonov	Yoshlar ishlari agentligi Fargʻona tumani bo'limi boshlig'i